

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI




"Tasdiqlayman"
Navoiy davlat pedagogika
instituti rektori
Sobirov B.B.

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR
DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI

60211400 – “Vokal san'ati (tulari bo'yicha)” ta'liim yo'nalishi uchun

Navoiy - 2023 yil




Dastur O'zbekiston davlat konservatoriysi 20__ yil __ __dagi (__-sonli majlis bayoni) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan dastur asosida Navoiy davlat pedagogika institutida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasi mudiri,
professor **M.Razzokova**
O'zDK "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasi dotsenti
G.Muxamedova

Taqrizchilar: **Azimov Baxtiyor** O'zbekiston Davlat
Konservatoriysi“Musiqa pedagogikasi” kafedrasi dotsenti.

Buxoro Davlat Universiteti “Musiqa ijrochiligi va madaniyat”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) F.G Nurullayev



Kirish

Ixtisoslik fanidan ijodiy imtihonlarda qatnashmagan abiturientlar keyingi sinovlarga kiritilmaydi ta'lif yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abiturientlarning amaliy ko'nikma va malakaiarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lif yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abiturientlar musiqiy asar kuylash borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

60211400 - Kasb ta'limi: Vokal san'ati" ta'lif yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abiturientlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakaiarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abiturientlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me'yoriy dasturni o'zlashtirish ustida ish olib boriladi.

"Vokal san'ati (turlari bo'yicha") fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abiturientlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alovida e'tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. "Vokal san'ati (turlari bo'yicha") fani yuzasidan abiturient davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi pay do bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.


Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar

"60211400 - Kasb ta'limi: Vokal san'ati" ta'lif yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abiturientlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarai ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, jahon musiqasidan namuna, mahoratli asar)ni ijro etib berishi, 15 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

Kiruvchi abiturient komissiyaga quyidagi asarlarni taqdim qilish kerak:

- 2 ta klassik ariya;
- romans;
- xalq qo'shig'i.



Ijro dasturi

60211400 - Kasb ta'limi: Vokal san'ati" ta'lim yo'nali shiga ariza topshirgan barcha abiturientlar belgilangan ro'yxat asosida tanlagan yo'nali shi bo'yicha yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano va an'anaviy ansambl jo'rligida yoddan kuylashadi.

Abiturient asarlar nota maitnini xatosiz, asarning sur'atini ko'rsatilgan tezlikda, kuy shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini toiiq ochib bergen holatda kuy lab berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qoilanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Kollokvium

Kollokvium savol-javoblari:


- a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo'nali shi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);
- b) o'rta maxsus ta'limning umumiy kursi darajasida elementar musiqa nazariyasi, cholg'ushunoslik, musiqa adabiyotidan bilimlarni;
- v) shakl va garmoniya nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi;
- g) notadan o'qish ko'nikmasi.

Shuningdek, kollokviumda abiturientning topshirgan yo'nali shlari bo'yicha musiqa san'ati va boshqa san'at turlaridan, o'zbek va chet el musiqasida ma'lum va mashhur asarlar, zamonaviy an'analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

1. Ijro dasturi

Nº	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to'g'rili	8,6
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	8,6
3.	Applikaturaning qoilanishi	8,6
4.	Sahna madaniyati	8,6
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	8,6
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qoilanishi	8,6
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatalishi	8,6
8.	Intonatsiya sofligi	8,6
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	8,6
10.	Sur'atning to'g'ri tanlanishi	8,6

Ijro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **86 ball**



2. Kollokvium

Nº	SavoIIar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	3,0
2.	Musiqa nazariyasi bo‘yicha savollar	3,0
3.	Musiqiy cholg‘ular bo‘yicha savollar	3,0
4.	Musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	3,0
5.	Notani o‘qish ko‘nikmasi	3,0
6.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	3,0
7.	Notadan o‘qish ko‘nikmasi	2,0


Kollokvium bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball - 20 **ball**

3. Musiqa nazariyasi (solfedjio)

Musiqiyaning tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalanishi. Tovushlar, interval, akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvni, nota cho‘zimlari va ularga qo‘yiladigan tovushlar cho‘zimini uzaytiruvchi qo‘sishma belgilar, nota yozuvini qisqartirish Belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho‘zimlarning turkumlanishi. Oddiy, murakkab, aralash va o‘zgaruvchan metrlar va o‘lchovlar. Oddiy va tarkibli intervallar. Diatonik va xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg‘un va noturg‘un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og’ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish.

Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko‘rsatilgagan tonallikda tuzib va kuylab berish. Kalmikov va Fridkin “Birovozli solfedjio” o‘quv qo‘llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval, akkord, lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

Nº	Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari	ballar taqsimoti
1.	Nazariy materiallarni bilish.	0 - 10
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning	0 - 10



	aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish.	
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash.	0 - 15
4.	Tinglab aniqlash.	0 - 15
Jami		50

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Vokal san'atida ijro dasturi - **86 ball**, kolokvium - **20 ball**, musiqa nazariyasi-**50 ball**.

Mazkur ta'lif yo'naliishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga qo'yiladigan maksimal ball - **186 ball**.

Ijodiy imtihonmi o'tkazish tartibi

"60211400 - Vokal san'ati: ta'lif yo'naliishiga hujjat topshirgan abiturient jadval asosida belgilangan kunlarda va tartibda ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan vaqtda va joylarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abiturientdan ijro dasturi bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi, kolokvium o'tkazadi.

Ixtisoslik fanidan ijodiy imtihonlarda qatnashmagan abiturientlar keyingi sinovlarga kiritilmaydi.

Apellyatsiya tartibi

Abiturientlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abiturientlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

